

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ESHIMOVA SHAROFAT KENJABOYEVNA**

**KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA METAFORA HODISASINING  
LINGVOKOGNITIV TAHLILI**

**– 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

UO'K: 811.512.133:811.531+81'1

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological sciences**

**Eshimova Sharofat Kenjaboyevna**

Koreys va o'zbek tillarida metafora hodisasining lingvokognitiv tahlili ..... 3

**Эшимова Шарофат Кенжабоевна**

Лингвокогнитивный анализ феномена метафоры в корейском и узбекском  
языках ..... 27

**Eshimova Sharofat Kenjaboevna**

Linguistic-cognitive analysis of the phenomenon of metaphor in Korean and  
Uzbek languages ..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---


**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ESHIMOVA SHAROFAT KENJABOYEVNA**

**KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA METAFORA HODISASINING  
LINGVOKOGNITIV TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**



**Samarqand – 2026**

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat hodisalariga antroposentrizm g'oyalari va tamoyillarining rivoji tufayli alohida e'tibor berila boshlandi hamda shu asnoda madaniy tafakkurning ifoda vositasi sifatida metaforalar alohida qiziqish uyg'otmoqda. Keyingi yillarda til va tafakkur, til va shaxs, til va jamiyat, til va madaniyat munosabatlari singari global va murakkab muammolar zamonaviy tadqiqotlarning diqqat markazida turishining boisi shundandir. Metaforalarni muloqotning muayyan ijtimoiy omillari bilan bog'liq holda o'rganish, til va jamiyatning bir-biriga ta'siri masalasiga doir ma'lumotlarni boyitishga xizmat qilmoqda. Sistem-struktur tilshunoslikdan keyin yuzaga kelgan psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika singari zamonaviy yo'nalishlarda ishlab chiqilgan antroposentrik tamoyillar va tadqiqot usullari lisoniy faoliyatning til yoki nutqqa daxldor birliklarini tahlil qilish ushbu faoliyat haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Dunyo tilshunosligida inson lisoniy faoliyatining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish bilan tilshunoslar nutqda faollashgan metaforalarning dinamik xususiyatlariga e'tibor bera boshladilar. Shu bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar buning yaqqol ifodasidir. Mazkur yondashuv bizga tilni yangi nuqtai nazardan – muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir o'tkazish, so'zlovchi manfaatlarini ilgari surish uchun tilshunoslik va adabiyotda lisoniy birliklarning voqelanishi nuqtai nazaridan o'rganishga imkon beradi. Shuningdek, metaforalarning koreys va o'zbek tillaridagi ifodalari ilmiy jihatdan to'liq asoslab berilmagani mazkur muammoni majmuaviy ravishda, zamonaviy tahlil usullari doirasida tadqiq qilish zaruratini paydo qiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tilshunoslik fanida paydo bo'lgan yangi yondashuvlarda inson omilini "til va tafakkur", "til-inson-muloqot" kesimlarida ko'rib chiqish g'oyasi olg'a surilayotgan bir paytda o'zbek tilshunosligida ham tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Mustaqillik milliy tilshunoslikni jahondagi ilg'or mezonlar asosida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratishi bilan birga, ushbu mezonlarga ko'p asrlik milliy dunyoqarashimizdan kelib chiqib munosabat bildirish mas'uliyatini ham yuklaydi. Ushbu mas'uliyat, eng avvalo, mamlakatimizda yetakchi sohalardan biri sifatida rivojlanayotgan koreys tilini chuqurroq o'rganish imkonini yaratadigan ilmiy va o'quv adabiyotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish masalasiga e'tibor berishni talab qiladi. Koreys va o'zbek tillaridagi metafora hodisasining lingvokognitiv tahlili o'zbek koreysshunosligidagi ana shunday ehtiyojni qondirish borasidagi kichik qadamlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3621 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Abbasova Dilfuza Karimbek qizi**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "22" may soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; E-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63096 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "6" may kuni tarqatildi.  
(2026-yil "6" may daqi №33 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi<sup>1</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tilshunoslik sohasida tropli derivatsiya – metafora nazariyasiga oid ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan va ushbu muammoga doir qimmatli fikrlar bayon qilingan. Shu o'rinda Lakoff & Johnson, Aristotel, Kovecses<sup>2</sup> va boshqalarning ishlarini alohida qayd etish kerak. Ular metaforaning nazariyasi haqida birinchilardan bo'lib tadqiqotlar olib borgan tilshunoslardan hisoblanadi. O'zbek tilshunos olimlaridan M.Mirtojiyev, Z. Tohirov<sup>3</sup> kitoblarida metafora haqida birmuncha ma'lumotlar keltirilib, ular tasniflab o'tilgan. Yosh olim-izlanuvchilarning bu boradagi izlanishlari ham ahamiyatga molik sanaladi. Jumladan, O.Ya. Karimov, O.S.Makarova, Sh.T. Maxmaraimova, G.K. Qobuljonova, U.S.Qobulovalarning dissertatsiyalarida metafora haqida batafsil ta'rif keltirib o'tilgan<sup>4</sup>.

Metafora borasida koreys tilshunoslaridan Kim Ki Su (김기수, 은유의 인지적 연구", 경북대학교 대학원 박사학위논문, 1993), Kim Song Te (김성태, "개념적 은유의 교수 학습 방법", 부산외국어대학교 교육대학원 석사학위논문, 2000), Kim Chong Do

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni" // [lex.uz/docs/-4545884](https://lex.uz/docs/-4545884); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori // <https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi //....

<sup>2</sup> Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер.с англ. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.; Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – 224 с.; Kövecses Z. Metaphor: a practical introduction, 2nd ed/ - New York: Oxford University Press 2010. – 400 p.

<sup>3</sup> Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёт. – Toshkent, 1973.-№4. -Б.33-37; Тоҳиров З. Метафора лексема-семемасининг прагматик семаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1984. - № 4. – Б. 63-67.

<sup>4</sup> Каримов О.Я. Абдулла Орипов шеърятда метафорик образлар тизими: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент 2012. – 140 б.; Макарова О.С. Метафора как языковой реализации индивидуальной концептосферы Ф. Ницше: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. - Волгоград, 2007. – 22 с.; Maxmaraimova Sh.T. O'zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt): Filol. fan, nom. ... diss. avto-ref. – Samarqand, 2020. – 40 б.; Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол.фан. номз. ... diss. – Тошкент, 2000. – 230 б.; Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va differentsial semalar munosabati (o'zbek xalq topishmoqlari misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avto-ref. – Toshkent, 2007. – 23 b.

(김종도, “은유의 세계”, 한국 문화사 2004), Im Ji Ryong (임지룡, “비유의 인지언어학적 탐색, 태학사, 2015”), Kim Yong (김용, 개념적 은유 기반의 한국어 동사 의미 교육 연구”, 서울대학교 대학원 박사학위논문, 2015), Kvon Yon Jin (권연진, “은유의 개념화 양상에 관한 연구”, 인문과학연구, 44 권, pp 339-358, 인문과학연구회, 2009), Kim Sang Xan (김상한, 개념적 은유를 활용한 시 ‘바꾸어 쓰기’ 지도 방안”, 국어교육 128 권, pp 555-576, 국어교육학회, 2009), Kim Dong Xvan (김동환, 개념적 은유의 문화 간 차이 연구”, 인문과학연구, 11 권, pp5-60, 인문과학연구회, 2009)<sup>5</sup> lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu tilshunos olimlarning yuqoridagi kitoblarida olib borilgan ilmiy izlanishlari orasida metaforaning turlari, tasnifi va ularning badiiy matnlarda ifodalanishi bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda.

Metaforaning turlari bo‘lmish oddiy metafora, sinesteziya va personifikatsiyani o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Aynan koreys tiliga xos bo‘lgan metaforaning o‘ziga xos xususiyatlari koreys olimlarining ilmiy asar hamda maqolalarida o‘z aksini topgan, ammo o‘zbek tilshunoslari tomonidan hali to‘laligicha yoritilmagan. Biroq, koreys tilidagi metaforaning turlari ya‘ni sinesteziya va personifikatsiyaning badiiy asarlarda voqelanishi masalasi 임지룡 va 김옥동 ning ilmiy ishlarida muhokama qilingan. Personifikatsiya masalalariga oid qarashlar, muammolar va ularning yechimlari haqidagi qimmatli g‘oyalar N.D.Arutyunova, M.Blek, A.P.Babushkin, AN.Baranov, Yu.N.Karaulovlarning <sup>6</sup> ilmiy ishlarida ham targ‘ib qilingan. Umuman olganda metafora va uning turlariga bag‘ishlangan asarlarni ko‘plab keltirish mumkin, ammo ushbu tadqiqotimiz uchun tanlangan metafora, sinesteziya va personifikatsiyani har tomonlama tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot rejasining “Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** koreys va o‘zbek tillarida metaforik hodisalarni o‘rganib tahlil qilib chiqish hamda ikkala tildagi materiallar asosida tavsiflab, ularning o‘ziga xos jihatlarini yoritib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

metafora hodisasining jahon tilshunosligi kontekstidagi o‘rganilishi va unga olimlarning munosabatlarini koreys, o‘zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan tahlil qilish;

<sup>5</sup> 김기수, 은유의 인지적 연구”, 경북대학교 대학원 박사학위논문, 1993; 김성태, “개념적 은유의 교수 학습 방법”, 부산외국어대학교 교육대학원 석사학위논문, 2000; 김종도, “은유의 세계”, 한국 문화사 2004; 임지룡, “비유의 인지언어학적 탐색, 태학사”, 2015; 김동환 “개념적 은유의 문화 간 차이 연구”, 인문과학연구 11 권, pp 5-60, 인문과학연구회, 2009.

<sup>6</sup> Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва, 1999. – 905 с.; Блэк М. Метафора / Пер. с англ. М.А. Дмитриевской // Теория метафоры: Сб. статей / Общ. ред. Н.Д. Арутюновой и М.А. Журиной. – М.: Прогресс, 1990. – С. 153-173; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика. – Воронеж: Издательство ВГУ. 1997. – 104 с.; Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. Русская политическая метафора (материалы к словарю). – Москва: Ин-т русского языка, 1991. – 193 с.

koreys va o'zbek tillarida metaforaning inson faoliyati jarayonidagi yuzaga kelish omillarini tasniflash va umumlashtirish;

metaforaning hosil bo'lish usullarini o'zbek va koreys tillaridagi hissiy-empirik hamda ratsional nuqtai nazarlardan tahlil qilib, nazariy xulosalar bilan isbotlash;

koreys va o'zbek tilshunosligida metafora, sinesteziya va personifikatsiyaning gap tahlili va badiiy adabiyotda namoyon bo'lishini yoritish, ularni tarjima qilishda har ikki tilda kuzatiladigan muqobillikning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida XX asr koreys va o'zbek tillarida metaforaning turlari bo'lmish sinesteziya va personifikatsiya ishtirok etgan badiiy matnlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** koreys va o'zbek badiiy matnlarida metafora, sinesteziya va personifikatsiya hodisalarining lingvokognitiv xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** mavzuni yoritishda umumiy va maxsus lingvistik tahlil metodlari: tavsiflash usuli, komponent tahlil, qiyosiy tipologik, semantik derivatsiya metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda** namoyon bo'ladi:

metafora hodisasi til muammosi sifatida talqin etilib, adabiyotdagi bezak turi sifatida emas, balki hamma joyda tarqalib tillarda bir-biriga bog'langan fikrning kontseptual tizimi sifatida qaralishidan kelib chiqib kognitiv va kontseptual metaforalarning bir-birini to'ldiradigan va aslida bitta narsa ekanligi aniqlangan;

ikki so'zning ma'nosini bog'laydigan metafora nafaqat tasviriy vosita, balki ikki tushunchaviy sohani birlashtiradigan ongning asosiy amaliyoti, voqe'likning o'ziga xos kontseptualizatsiyasi bo'lib, inson mushohadasi analogik imkoniyatlarining namoyon bo'lishi xususiyatlari ochib berilgan;

koreys va o'zbek tillarida metaforalarning his-tuyg'u, shakl, eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm hamda xulq-atvoriga ko'ra turlaridan qayerda va qay holatda foydalanish kabi vazifalarni bajarishi dalillangan;

metaforalarning 3 ta asosiy turi oddiy metafora, sinesteziya, personifikatsiyaning jummalarda va badiiy adabiyotda ishlatilishi tarjimada muqobillikdan (to'liq yoki qisman) foydalanish va tavsiflash, tarjima qilishdagi eng samarali usullar ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

dissertatsiya ishining amaliy natijalari kommunikativ tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyoti hamda pragmalingvistika sohasida qo'llanma va darsliklar yaratish, izohli va atamalar lug'atini tuzish, shuningdek koreys tili ta'limining barcha bosqichlarida ushbu lisoniy madaniyatga xos ba'zi xususiyatlarni yanada chuqurroq o'rganishga imkon berishi aniqlangan;

koreys va o'zbek tillarida metafora turlari bo'lmish oddiy metafora, sinesteziya va personifikatsiyaga oid matnlar, misollar semantik va lisoniy tahlil qilingan;

his-tuyg'u, shakl, eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm hamda xulq-atvoriga ko'ra metaforalarning obrazli tuzilishi va ularning tarjimasi masalalari mutaxassislikka oid maxsus adabiyotlarni o'qib tushunib tarjima qilishda manba bo'lishi mumkinligi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada zamonaviy tilshunoslikka muvofiq yondashuvlardan foydalanilganligi, tahlil yoʻnalishining zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi va metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiq etilgan maʼlumotlar va tahlil etilgan misollar ishonchli manbalardan olinganligi, qoʻyilgan muammo va erishilgan xulosalarning konkretligi hamda olingan natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, oʻzbek va koreys tillaridagi metaforaning kontseptual va kognitiv turlari hamda tillarda fikrning bir-biriga bogʻlanishidagi asosiy kontseptual tizimi sifatidagi xususiyatlariga oid lingvomadaniyatshunoslik, tropli derivatsiya sohalari uchun muhim nazariy-amaliy tahlil yoʻnalishlari shakllanadi va ushbu hodisalar tabiatini yanada kengroq va chuqurroq ochib berishga imkon beradi, bu erishilgan natijalarning samaradorligi va istiqbolidan dalolat beradi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslik nazariy yondashuvlarining amaliy ahamiyatini rivojlantiradi va tarjima muammolarini oʻrganish va hal qilishning yangi usullarini ochib berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, shuningdek, oʻzbek va koreys tilidagi metafora turlari oddiy metafora, sinesteziya va personifikatsiyaning semantik tahlili boʻyicha muammoning aniq qoʻyilganligi, toʻplangan materiallar tahlili orqali asosli ilmiy xulosalar chiqarilganligi, manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, olingan natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, oʻzbek va koreys tillarida his-tuygʻu, shakl, eshitish, koʻrish, hid bilish, taʼm hamda xulq-atvoriga koʻra metaforalarning obrazli tuzilishi va xususiyatlari boʻyicha amalga oshirilgan tahlillar “Qiyosiy tilshunoslik”, “Nutq madaniyati”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Pragmalingvistika”, “Badiiy tarjima” fanlarini oʻqitishda ahamiyatli hisoblanadi. Ishning tahlilga tortilgan materiallaridan oliy taʼlimning filologiya yoʻnalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun maxsus kurslar va seminarlar oʻtkazishda, shuningdek, “Leksikologiya”, “Koreys tili tarixi”, “Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili”, “Matnning kontseptual tahlili” kabi darslik va boshqa oʻquv adabiyotlarini tuzishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Koreys va oʻzbek tillarida metafora hodisasining tavsifi, ularning tahlili va tarjimada berilishi masalalari boʻyicha olingan natijalar asosida:

metafora hodisasi til muammosi sifatida talqin etilib, soʻnggi yillarda olimlarning qiziqish mavzusiga aylanganligidan kelib chiqib kognitiv va kontseptual metaforalarning bir-birini toʻldiradigan va aslida bitta narsa ekanligi, koreys va oʻzbek tillaridagi metafora hodisasining oʻrganilish jarayonida oʻquvchi uchun matnning yoki badiiy adabiyotning oʻrganilayotgan tilda tushunarli boʻlishi va tarjima qila olishi uchun qilingan tahlillar masalalari boʻyicha olingan natijalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus+58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi boʻyicha

magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025- yil 11-yanvardagi №68/02–sonli ma’lumotnomasi). Natijada, metaforalar tahliliga oid ko’rsatilgan tavsiyalar koreys tili bo’yicha “Qiyosiy tilshunoslik”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Nazariy grammatika”, “Terminologiya tarjimai” kabi fanlarning nazariy masalalarini boyitishga xizmat qilgan;

ikki so’zning ma’nosini bog’laydigan metafora tasviriy vosita emas, balki ikki tushunchaviy sohani birlashtiradigan va voqe’likni konseptuallashtirishda manba doiraning tuzilmasini shakllantirish imkonini beradigan ongning asosiy amaliyoti, voqe’likning spetsifik kontseptualizatsiyasi bo’lib, inson mushohadasini analogik imkoniyatlarining namoyon bo’lishi xususiyatlari ochib berilgan o’rinlardan 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo’yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 25-martdagi 782/02-son ma’lumotnomasi). Natijada insonning borliqda va voqelikdagi kechinmalarini tilga ko’chirishda metaforalardan foydalanishidagi roli va undan qo’llanadigan asosiy vazifalari qaysi ob’yektlar doirasida amalga oshirilishi ochib berilgan;

koreys va o’zbek tilidagi his-tuyg’u, shakl, eshitish, ko’rish, hid bilish, ta’ m hamda xulq-atvoriga ko’ra metaforalarning xususiyatlari doirasidagi ilmiy tadqiqi bo’yicha xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo’ljallangan 561624-EPP-1-2015-1-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O’zbekistonda Oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025- yil 28-martdagi №838/02–sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida o’zbek va koreys tillarida metaforik ma’noning vujudga kelish vositalaridan his-tuyg’u, shakl, eshitish, ko’rish, hid bilish, ta’ m va xulq-atvoriga ko’ra tavsiflanishi bo’yicha qaralishiga erishilgan. Bunday metaforalar boshqa madaniyatlarda paydo bo’lishiga imkon beradigan narsa shundaki, birlamchi metaforalar tana his qilgan tajribaning universal korrelyatsiyasi bilan yuzaga keladi. Aslida, inson zavqlanganda yoki baxtli bo’lganda tana yuqoriga yo’nalib faollashadi va aksincha g’amga botgan yoki xafa bo’lgan paytda pastga qarab ketib faollik sustlashadi, bular yoshlikdan his qilinadigan universal tajribalar bo’lganligi sababli universal birlamchi metaforalar yuzaga keladi deb aytish mumkinligi asoslangan;

metaforalarning 3 ta asosiy turi bo’lmish oddiy metafora, sinesteziya, personifikatsiyaning shakl va mazmun jihatdan bir-biriga o’xshash va farqli jihatlari, metaforalarning kundalik hayotda va badiiy adabiyotlarda ifodalangan matnlar va jumalarning alohida fazilatlarini tahlilga tortilgan o’rinlaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2024-yil noyabr oyi davomida efirga uzatilgan “Assalom Samarqand” ko’rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 6-

dekabrdagi №01-07/413-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarida ilgari surilgan muhim ilmiy-ijodiy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar teleradiokompaniyaning ko'rsatuv va eshittirishlari mundarijasini boyitgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 157 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob'yekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek va koreys tillarida metaforik derivatsiya**" deb nomlangan birinchi bobi tilshunoslikda metafora hodisasiga ilmiy qarashlar, kognitiv metafora nazariyasi hamda metaforaning tasnifiy talqinlarini yoritishga bag'ishlangan.

Birinchi bo'lim "Metafora hodisasiga ilmiy qarashlar" deb nomlanadi. Tildagi ma'no ko'chish hodisasi juda qadimdanolimlar diqqatini o'ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval u adabiyot, ya'ni badiiy so'z san'ati nuqtai nazaridan o'rganilgan. Tilshunoslarning qayd etishicha, metafora va uning voqelanishi Aristoteldan keyin, o'tgan yillar davomida davomiy bahs-munozaraga sabab bo'lib kelingan. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning alohida usuli va vositasi sifatida ko'rsatish Aristotel (shuningdek, Tsitseron) ga taalluqli g'oyadir<sup>7</sup>.

Eramizning VIII asrida qadimgi hind filologi Anandavardxana Dxavanyaloka "Metafora nuri" risolasida metaforani "ikkinchi darajali" deb yozadi, ya'ni, mazmuni "bir vaqtning o'zida ikkita ob'yektni" qamrab oladigan belgi, "ikkinchi darajali ma'noda ishlatiladigan ibora" sifatida va ikkita metafora ma'nolari "qiyoslanganlarga nisbatan" va "bir-biri bilan birlamchi va ikkilamchi munosabat", "aks-sadoga o'xshash" deb ataydi<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4. – 155-160 с.; Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С. 128; Античные теории языка и стиля. – СПб.: Алетейя, 1996. – С. 219.

<sup>8</sup> Анандавардхана Дхаваньялока. Свет метафоры. – М., 1974. – С. 65, 156, 159.

Nemis faylasufi Immanuil Kant (1724-1804) ham metafora nazariyasining rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, inson ongining xususiyati sifatida mavhum tushunchalarni hissiy tajriba asosida izohlash va ularni aniq analogik vositalar usullar orqali ochib berish holati kuzatiladi. U shunday deb yozgan edi: "Sof ratsional tushunchani ifodalash, uni tajriba ob'yekti bilan bog'lash fikr, unga ob'yektiv voqelik mazmunini berish va uni tasvirlash imkoniyati bilan belgilanadi. Ya'ni, agar bunday bog'lanishning iloji bo'lmasa bu tushuncha bo'sh hisoblanadi va uni bilishga ehtiyoj qolmaydi"<sup>9</sup>. Lakoff va Jonson, Langacker kabi olimlar metaforalarni kognitiv nuqtai nazardan muhokama qilib kelishgan. Shunday qilib, metafora ifoda - bu ritorik vosita yoki favqulodda hodisa emas, balki kundalik til hayotida ko'p joylarga singib ketgan juda normal va kundalik og'zaki ibora hisoblanadi. Demak, metaforaning asosiy vazifasi – obraz yaratish – uning strukturasi shakllantirishdir. Ushbu strukturani tavsiflash uchun M.Blek "metaforaning bosh sub'yekti va ko'makchi sub'yekti" terminini muomalaga kiritgan<sup>10</sup>. Demak, metafora nafaqat she'r yoki roman kabi badiiy asarlarda balki kundalik muloqotda ham keng qo'llaniladigan til ifodalash vositalarining keng doirasi bo'lib, til foydalanuvchilarining psixologik, lingvistik, madaniy jihatlarini ochib berishda qo'l keladi. Shu nuqtai nazardan bir tilning metaforik hodisasini kontseptual tushunmasdan u tildan foydalanib muammosiz muloqot qilish qiyindir<sup>11</sup>.

M. Blek metafora ta'riflariga nisbatan zamonaviyroq misollarni ham keltiradi, bunda metafora o'zi almashingan so'zma-so'z ifodaga ekvivalent hisoblanadi<sup>12</sup>. Biroq J. Lakoff bu ta'riflarni xato deb hisoblaydi<sup>13</sup>.

2-bo'lim Metaforaning tasnifiy talqinlariga bag'ishlangan. Ko'plab tadqiqotchilar lisoniy va obrazli (poetik, badiiy, individual mualliflik) metaforalarni semasiologik va stilistik tadqiqotlarning turli ob'yektlari sifatida e'tirof etishadi. G.N.Sklyarevskayaning ta'kidlashicha, mazkur tadqiqotlarda metaforaning ikki tipini – badiiy metafora va lisoniy metafora tilning boshqa hodisalaridan ajratib olinib tavsiflanganda, darrov uning ikkiyoqlama mohiyati – til vositasi va poetik figuraligi haqidagi masala maydonga chiqdi<sup>14</sup>.

Arastu fikricha, poeziya tili o'ziga xos so'z qo'llashni taqozo etadi, toki tanlangan so'zlar, bir tomondan, aniqlikni, ikkinchi tomondan, kundalik nutqdan farqlanib turishini ta'min etsin. Agar umumiste'moldagi so'zlar poeziya tilining aniqligini ta'minlasa, "glossalar, metaforalar, bezaklar... oliyjanob va ulug'vor" etadi, kundalik nutqdan farqlaydi. Yana "metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va ohorlilik jozibasiga ega", undan o'rinli va bilib foydalanish nutqni bezaydi. Ya'ni, Arastu o'zi aytmoqchi "noodatiy so'zlar" ni, jumladan,

<sup>9</sup> Кант Иммануил. Сочинения. - Т. 6. - М.: Мысль, 1966. - С.178.

<sup>10</sup> Блэк М. Метафора / Пер. с англ. М.А. Дмитривской // Теория метафоры: Сб. статей / Общ. ред. Н.Д. Арутюновой и М.А. Журиной. - М.: Прогресс, 1990. - С. 163.

<sup>11</sup> 김영실 "고등학교 영어교육에서의 은유 교수-학습 모형 연구", 경상대학교 대학원 박사학위논문 2006: p12;

<sup>12</sup> Блэк М. Метафора / Пер. с англ. М.А. Дмитривской // Теория метафоры Сб. статей / Общ. ред. Н.Д. Арутюновой и М.А. Журиной. - М., 1990. - С. 153.

<sup>13</sup> Лакофф Д., Johnson М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. - М.: Едиториал УРСС, 2004. - С.140.

<sup>14</sup> Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. - Москва: Наука, 1993. - 30 с.

metaforalarni poeziya tilining belgilovchi xususiyati deb hisoblaydi va ularga g'oyat katta ahamiyat beradi. Arastu metaforaning ahamiyatini tushuntirarkan, "bizga qandaydir bilim beradigan so'zlar yoqimli" deydi, chunki metafora ikkita narsani o'xshatish orqali "turga xos tushuncha yordamida bilim beradi va ma'lumotlar yetkazadi". Arastu metaforaning badiiy tafakkur unsuri ekaniga diqqat qiladi. Shuningdek, ishda hozirda ham ommalashgan "metafora – siqiq o'xshatish" degan qarash Arastudan boshlangani ko'rsatildi. Ikkita obyekt ochiq o'xshatilganidan ko'ra yashirin o'xshatishning estetik samarasi kuchliroqdir.

Metafora muhim lingvistik vosita sifatida uning semantik, funksional va tarkibiy xususiyatlarini aks ettiruvchi turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Quyida metaforalarni tasniflashning asosiy yondashuvlarini keltirib o'tamiz.

1. Adabiy me'yorga ko'ra:

- umumiy (umumiste'moldagi) metaforalar: tilda keng qo'llaniladigan va tilimizda o'rnashib qolgan iboralar, masalan "stulning oyog'i"

- okkazional (vaqtinchalik, ya'ni individual-muallifga xos) metaforalar: muayyan muallfi tomonidan ma'lum bir kontekst uchun yaratilgan, o'ziga xoslik va yangilikka ega.

2. Stilistik xususiyatlariga ko'ra:

- stilistik metaforalar: nutqning ifodaliligi va emotsionalligini oshirish uchun ishlatiladi, ko'pincha badiiy adabiyotda uchraydi.

3. Qiyinchilik darajasiga ko'ra:

- oddiy metaforalar: "bir varaq" kabi bir so'z yoki iboradan iborat.

- kengaytirilgan metaforalar: yagona tasvirni yaratuvchi o'zaro bog'langan metaforik iboralar zanjirini ifodalab keladi.

4. So'z yasalishi turlariga ko'ra:

- leksik metaforalar: majoziy ko'chirish natijasida ma'nosi o'zgarib, umume'tirof etilgan so'z yoki iboralar, masalan, "stul oyog'i".

- semantik metaforalar: xususiyatlarning o'xshashligi asosida ma'noni bir ob'yektdan ikkinchisiga o'tkazishga asoslangan.

5. Kognitiv va kontseptual xususiyatlariga ko'ra:

- kognitiv (kontseptual) metaforalar: fikrlash va dunyoni anglash usullarini aks ettiradi, mavhum tushunchalarni aniqroq tasvirlar orqali modellashtiradi<sup>15</sup>.

G.N.Sklyarevskaya metaforalarning lug'atdagi ifodasini o'rganishda metaforalarning semantik tasnifi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Uning fikricha, metaforalarning tasnifi ularning tarkibiy mazmuni bo'yicha aniqlanadi. Olim quyidagi metaforik ko'chish turlarini sanab o'tadi:

1. predmet – predmet (*tom – uyning xonasi*)

2. predmet – inson (*daroz-uzun odam*)

3. predmet – fizik hodisa (*bozor - shovqin*)

4. predmet – psixik hodisa (*kir, ifloslik – bu pastkashlik, tuban narsa*)

5. predmet – mavhum tushuncha (*tormoz – ishdagi to'siq*)

6. predmet – odam (*mol – befarosat; xo'roz – urishqoq, bezori*)<sup>16</sup>.

<sup>15</sup> Макарова О.С. Метафора как языковой реализации индивидуальной концептосферы Ф. Ницше: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2007. – С. 12.

<sup>16</sup> Склярская Г.Н. Языковая метафора в словаре// Опыт системного описания, 1987. №2. - С. 58-66.

Metaforani o'rganish ko'plab tasniflarga ega, chunki u ko'p yillar davomida olib borilgan va kognitiv mexanizm sifatida turli sohalarni qamrab olgan. Ushbu tasniflar bu murakkab tushunchani ko'p qirrali o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, metaforani tarjima qilish haqida gap ketganda, uning kontseptual tasnifi zamonaviy tarjimonlar tomonidan tan olinganligini yodda tutish kerak. J.Lakoff va M.Jonson tomonidan taklif qilingan ushbu tasnif metaforalarning chuqurroq tabiatini ham, ularning shakllanish mexanizmini ham qamrab oladi. Badiiy adabiyotdagi metaforaning chet tiliga tarjima qilinishi ana shunday kognitiv yondashuvni talab qiladi. Bu esa metaforaning kontseptual nazariyasiga asoslangan tarjimaning yangi tamoyillariga yo'l ochadi.

Ushbu bobimizning oxirgi bo'limida Kognitiv metafora nazariyasi haqida so'z yuritiladi. Bugun tilshunoslikda bir qator yangi yo'nalishlar singari, kognitologiya sohasiga ham tobora qiziqishlar ortib bormoqda. Chunki tilshunoslikni an'anaviy tilshunoslik va zamonaviy tilshunoslik deb davrlarga ajratadigan bo'lsak, hozirgi zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishi bu antropotsentrik yo'nalishdir. Antropotsentrik yo'nalishning asosiy xususiyati shundaki, ushbu yo'nalish markazida inson omili turadi. Ya'ni, inson, inson harakatlari, nutqiy faoliyati muhim omil hisoblanadi. Insonlar nutqiy jarayonlarini o'rganish, avvalambor, insonlarning bilish, idrok etish jarayonlari bilan bog'liqdir. Ongning bilish, tushunish, idrok etishi bilan bog'liq birliklarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi "kognitologiya" nomi bilan nomlanadi.

Metaforaning vazifani bajaradigan mezoni o'rnida metaforaning qo'llanish maqsadlarini kuzatgan Kvintilianga ko'ra, metaforadan quyidagi holatlarda foydalaniladi: 1) o'z nomiga ega bo'lmagan predmetni nomlash (zaruratidan) uchun (zamonaviy tasnifga ko'ra nominativ metafora) – qattiq odam, yumshoq odam; 2) obyektga nisbatan munosabatni ifodalash, baholash uchun (nutqni jozibador qilishga ta'sir ko'rsatadi) – baholovchi metafora – nafrati olovlandi; 3) nutqni bezash uchun (nutqni go'zallashtirish uchun) – dekorativ metafora – so'zamollik daryolari<sup>17</sup>.

Masalan, koreys yozuvchisi Shin Kyong Sukning "엄마를 부탁해" (Onamni o'z panohingda asra) asarini oladigan bo'lsak, ushbu asarda ham juda ko'plab metaforalarni uchratishimiz mumkin. Adib asarda juda ko'p metaforalardan foydalangan. Unda onasini yo'qotib qo'ygan farzandning onalarini qidirishdagi jonbozliklarida turli metaforik iboralar aks etgan: *엄마의 사진을 어느 걸 쓰느냐를 두고 의견이 갈라졌다* – *Onamning rasmini qayerga qo'yamiz degan fikrlar bo'linib ketdi*<sup>18</sup>.

Kontseptual nazariya to'g'risidagi dastlabki qarashlar Reddining "The Conduit Metaphor" asarida keltirilgan bo'lib, u metaforalarga muloqot jarayonida ishlatiladigan umumiy til vositasidir deya ta'rif beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, tildagi mavhum tushunchalarni tasvirlashda, tilning funktsional foydalanuvchilari

<sup>17</sup> Прокопчук О.Г. Развитие представлений о метафоре в античной риторической традиции (Аристотель и Квинтилиан) // Веснік Беларускага дзяржаўнага ўніверсітэта. Серыя 4, Філалогія. Журналістыка. Педагогіка. – 2009. – 2. – С. 75–78.

<sup>18</sup> 신경숙, 엄마를 부탁해 2018, p20

uchun yetarlicha tushunchalar mavjud bo'lmashligi mumkin<sup>19</sup>. Chunki tilimizda mavjud bo'lgan tushunchalar dunyoning lisoniy birliklari va xususiyatlarini tasvirlashda uslubiy ma'no jihatidan aynan kontekst talab qilgan ma'noni ochib berolmasligi mumkin. Metaforalar yordamida esa aytilmoqchi bo'lgan fikr yana ham aniqroq namoyon bo'ladi.

Dunyoni tasvirlab bo'lmaydigan xususiyatlarini idrok etishda, so'zlarning o'z ma'nosiga qaraganda ularning ko'chma ma'nolari ko'proq majoziy xarakterga ega. Funktsional tilda so'zlashuvchilar so'zlarning bunday majoziy ma'nolaridan mohirlik bilan foydalanadilar va tinglovchilar ham qiyinchiliklarsiz tushunadilar. Reddingning metafora to'g'risidagi nazariyasini batafsil ishlab chiqdilar va "Standart metafora" dan farqli ravishda "Kontseptual metafora" va "Umumlashgan metafora" singari tushunchalarni ajratib ko'rsatdilar. Biz dunyoni tushunishimiz va bizning atrofimiz metaforadir, chunki atrofimizdagi narsalarni analogik tarzda boshqa narsalar nuqtai nazaridan tushunamiz va fikr yuritamiz. Ushbu kognitiv-metaforik tizim kontseptual metaforik tildan foydalanish uchun asosdir. Kognitiv tushunchasi "Kognitiv kategorik tizim" ning qisqartmasi sifatida ishlatiladi.

Fanga yaxshi ma'lumki, inson ongida axborotlarni tashkil qilish g'oyalar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi, bu esa o'z navbatida kognitiv jihatidan murakkab til birliklari tilda metaforik munosabat ifodalashi bilan bog'liqdir. Dunyo haqida ma'lumot olishning eng samarali usuli – ongimizdagi ma'lumotlarni tartibga solish va tushunishdir. Kognitiv metafora asoschilaridan biri J.Lakoffning ta'kidlashicha, dunyoni tushunishning asosiy vositasi tildan foydalana olish qobiliyatidir. Yana Lakoff aytadiki, til sohiblari xuddi go'daklar singari tilni to'liq idrok etishdan oldin, sezgi a'zolari yordamida dunyo haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo'lishadi. Turli madaniyatlar madaniy jihatdan chegaralangan kontseptual metaforani yaratish uchun, tilning turli aspektlaridan foydalanadilar. Lakoff tildagi birliklar va tushunchalardan Richards va Bleklardan farqli ravishda foydalanadi.

Masalan, ushbu misolni ko'rsak, "Sevgi aloqalari sayohatdir" 사랑은 여행이다 (Love relationships are journeys). Ushbu misol biroz tushunarsizdek tuyulishi mumkin. Lekin Lakoff ushbu g'oyani tushuntirish uchun kognitiv xaritalash va kontseptual lingvistik ko'rinishlarni taklif qiladi. Lakoff sevgi aloqalarini sayohatlarga qiyoslar ekan, olim ushbu misolni quyidagicha tushuntiradi: Sevishgan insonlar sayohatga chiqqan insonlarga o'xshatilgan. Chunki safarga chiqishda insonlar manzillariga tavakkal qilib safarga o'tlanadilar. Sevgi aloqalarida ham ikki sevishgan insonlar tavakkal ila hayotlarini qolgan qismini birga davom ettirishni xohlaydilar. Sevgi aloqalarida ikki insonning umumiy maqsadlari bir xil bo'lgani kabi, safarga chiqqan insonlarning ham maqsadlari bir xilligi ostida umumlashadi. Ikki inson munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni safar jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga qiyoslasak, sevishgan insonlarning munosabatlari sayohatga o'xshatiladi. Lakoffning fikriga

<sup>19</sup> Quintilianus M. Fabius. *Institutiones oratoriae*. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6); Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va differentsial semalar munosabati (o'zbek xalq topishmoqlari misolida): *Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref.* -Toshkent, 2007. – 23 b.

ko'ra, umumiy kognitiv xarita yordamida lingvistik iboralar oson tushuniladi va til sohiblari tomonidan anglangan holda qo'llaniladi. Ushbu kognitiv xarita dunyoni tushunishimiz to'g'risida axborot beruvchi kinesetik tajribalarga asoslanadi. Ya'ni, standart yoki yangi metaforalar – bular metaforadagi terminlar o'rtasidagi aloqalarning kognitiv jihatdan tushunilgan ko'rinishidir. Lakoffning fikricha ushbu metaforik natijasida yuzaga kelgan tushunchalar kontseptual metaforalardir. Yuqorida keltirilgan misolga ko'ra, shuni aytishimiz mumkinki, til sohiblari sayohat terminlari bilan ham sevgi, muhabbat haqida suhbatlasha oladilar. Masalan, sevgi haqida gapirganimizda kimdir metaforik gapni aytishi mumkin: 우리 관계는 그만되어 간다 – “Bizning munosabatlarimiz tugab bormoqda” yoki 우리 결혼은 코앞이다 – “Biz turmush qurish ostonasidamiz”. Ushbu gaplardan gap nima haqida ketayotganini aniqlash qiyin emas.

Ushbu bobimizda ikki so'zning ma'nosini bog'laydigan metafora nafaqat tasviriy vosita, balki ikki tushunchaviy sohani birlashtiradigan ongning asosiy amaliyoti, voqe'likning o'ziga xos kontseptualizatsiyasi bo'lib, inson mushohadasi analogik imkoniyatlarining namoyon bo'lishi xususiyatlari ochib berilgan. Metafora hodisasi til muammosi sifatida talqin etilib, adabiyotdagi bezak turi sifatida emas, balki hamma joyda tarqalib tillarda bir-biriga bog'langan fikrning kontseptual tizimi sifatida qaralishidan kelib chiqib kognitiv va kontseptual metaforalarning bir-birini to'ldiradigan va aslida bitta narsa ekanligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Metaforaning o'zbek va koreys tillarida turlarga bo'linishi**”ga bag'ishlanadi. Ushbu bobda metaforaning turlarga ajratilishi, oddiy metaforalar, sinesteziya va presonifikatsiya yoritilgan hamda koreys va o'zbek tillarida adabiyotlardan olingan misollar tahlil qilib chiqilgan.

Birinchi bo'limda Oddiy metaforaning xususiyatlari haqida so'z boradi. Metafora asosida nom ko'chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma'nodagi o'xshashligiga asoslanadi. Metafora tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan, badiiy hamda lingvistik metaforalarga ajratiladi. Lingvistik metafora ekspressiv bo'lmagan atama, badiiy metafora ekspressivdir. Ilmiy adabiyotlarda metaforani til va nutq hodisalari sifatida ikki turga ajratib ko'rsatadilar<sup>20</sup>.

Ko'chma ma'nolarni atroflicha tadqiq etgan M.Mirtojiyev metaforalarning denotat o'xshashligi belgisiga ko'ra uch guruhga bo'ladi<sup>21</sup>:

- 1) oddiy metafora 은유;
- 2) personifikatsiya 의인화 (jonli obyekt jonsiz obyektни o'ziga nomdosh qilib olishi);
- 3) sinesteziya 비유 (sezgi orqali his etiladigan ikkinchi obyektни nomdosh qilib olishi). Bunda oddiy metafora belgilarga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiya – jonlantirish orqali qiyoslash, sinesteziyada esa subyektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi.

<sup>20</sup> Қобулжоннова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол.фан. номз. ... diss. – Тошкент, 2000. – 230 б.

<sup>21</sup> Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973. – № 4. – Б. 33-37; Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. – 360; Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1964. – № 4. – Б. 34-36.

*Oddiy metafora* hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referantlarining o'zaro belgi, xususiyatlari oddiy qiyoslanishi, o'xshatilishiga asoslangan ko'rinishidir. Masalan, *darvoza* so'zining leksik ma'nosi "hovliga kirib chiqiladigan qurilish kompleksi" ni ifoda etadi. Futbol o'yinida "to'p kiritiladigan qurilish - 골문 (gol uriladigan darvoza)" ham bor bo'lib, bu u qurilishga sirtqi ko'rinishi va vazifasi jihatdan o'xshash. Mana shu o'xshashlikka asoslanib futbolga oid qurilma ham *darvoza* so'zi bilan atalgan. Natijada, *darvoza* so'zi mana shu atash hisobiga hosila ma'noni yuzaga keltirgan. Ya'ni: ... *to'p darvozaning yuqori to'siniga tegib, maydonga qaytdi* ("Toshkent haqiqati"). Bu o'rindagi referantlarning o'xshatilish belgi va vazifalarning bevosita qiyoslanishiga asoslangan. Masalan, *bosh* otining "sabzavotning" "iste'mol qilinadigan" "yumaloq o'rami" hosila ma'nosi shakliy o'xshashlikka asoslanib yuzaga kelgan. Ya'ni: *Topgan qo'y keltirar, topmagan bir bosh piyoz* (maqol).

Metafora asosida o'xshashlik turishi masalasida shu soha bilan shug'ullanayotganlarning hammasi deyarli hamfikr. Ammo ana shu o'xshatishning metaforadagi o'rni va mustaqil ko'rinishi borasida fikrlar ajralib ketadi.

Metafora qisqargan o'xshatishdir (A.Potebnya). Ya'ni o'xshatishga xos bo'lgan «kabi», «xuddi», «aynan», «o'xshamoq» va hokazo so'zlar tushirilsa, metafora yuzaga keladi: U gul kabi go'zal va nafis edi. U go'zal va nafis edi. Demak metafora va o'xshatish orasidagi munosabatga qarash ikki xil ekan:

1. Metafora – qisqargan o'xshatish, ya'ni ular orasida farq tashqi shakllanishidadir.

2. Metafora va o'xshatish o'zaro mazmuniy (ichki) shakllanuv jihatidan farq qiladi.

Shuning uchun bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko'chirish desa bo'ladi<sup>22</sup>.

2-bo'limimiz Sinesteziya hodisasining talqinlariga bag'ishlangan. Ma'lumki, beshta sezgi organimiz bizni o'rab turgan dunyo haqida ma'lumot olishimiz uchun muhim vazifani bajaradi. Aynan ular yordamida biz ob'yektlar va hodisalar haqida tasavvur hosil qilamiz. Ularning har biri ko'rish, eshitish, hidlash, teginish va ta'm kabi ma'lum bir sezgi vazifasini ifodalaydi. Psixologiyada uzoq vaqt davomida ularning barchasi bir-biridan mustaqil tarzda ishlaydi, degan farazga ishonib kelingan. Biroq, idrok etishning ba'zi mexanizmlari tufayli turli sezgilar orqali olingan ma'lumotlar o'zaro ta'sir qilishi va o'zaro bog'lanishi mumkinligi isbotlandi. Bunday o'zaro ta'sir shakllaridan biri, sezgi modallari bir-birini to'ldiradigan «barcha sezgilar birgalikda ishlaydigan» sinesteziya hodisasidir. Sinesteziya (yunoncha synaisthesis - «aralash sezgi») - bu turli sezuvchanlik sohalari fazilatlarining o'ziga xos birikmasi bo'lib, bunda bir modallikning fazilatleri boshqasiga o'tadi.

Sinesteziyani tushunish uchun biz tavsiflash tamoyillarini tushunishimiz kerak. Ta'rifning asosi ikki xil obyektida muvofiqlikni topishdir.

<sup>22</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.

Misol:

Misol	Sinesteziya	Tarjima
동행 쪽빛 바람	촉각의 시각화 (Teri orqali sezishni ko'rish hissi)	Sharqqa tomon yo'nalgan nurlil shamol
매운 계절의 채찍에 갈겨	미각의 촉각화 (Ta'm bilish hissini teri orali sezish)	Achchiq faslni yorib o'tish
내비 허리에 새파란 초당달이 시리다	시각의 촉각화 (Ko'rishni teri orqali sezish hissi)	Sovuqda belim muzlaganidek qalbim ham ko'm-ko'k bo'lib muzladi
고향의 저문 강물 소리가 묻어 있다	청각의 시각화 (Eshitish hissini ko'rish)	Yurtimning mashhur daryo ovozlari ko'milgan joy
매아리가 자맥질을 하는 곳	청각의 시각화 (Eshitish va ko'rish hissi)	Chigirtka qo'shiq aytadigan joy

Shu tarzda, aniqroq obraz alohida obyektlar bilan birgalikda tushuntirish orqali yetkaziladi. Sinesteziya - bu ikki yoki undan ortiq sezgilarni bitta tasvirga birlashtirish. Murakkab hislar bilan juda chalkash bo'lgan kontseptsiya, uni murakkab sezgir tasvir yoki murakkab tasvir deb ham atashadi.

Sinesteziyaning adabiyot uchun ahamiyati beqiyos. Chunki bu trop yorqin tasvirlarni yaratishga va hatto eng murakkab his-tuyg'ularni yetkazishga yordam beradi, shuningdek, o'quvchida muallifning munosabati haqida tasavvurni shakllantiradi. Sinestetik metafora ko'pincha kutilmagan kombinatsiyalarni o'z ichiga oladi va shu bilan matn imkoniyatlarini, uni idrok etish chegaralarini kengaytiradi. Shu o'rinda o'zbek adabiyoti vakillari ijodidan sinestetik metaforaga oid bir nechta misollarni ko'rib chiqsak. O'zbek she'riyati sinestetik metaforalarga boy. Masalan, atoqli shoir Abdulla Oripovning «Aprel» she'rida quyidagi birikmani uchratish mumkin:

*Borliq kiyib olgan moviy bir libos,  
Yel esar-bahorning pildiroqlari.  
Atrofni chaqirar yashil bazmga  
Aprel osmonining qaldiraqlari<sup>23</sup>  
Shuningdek, Erkin Vohidovning  
Favqulodda topishdilar ikkala yosh,  
Qiz husnda tengsiz edi misli lola.  
Ikkisin ham siylar edi saxiy quyosh,  
Quyoshim, deb kuylar edi shoirbola<sup>24</sup>,*

kabi satrlarida ham sinestetik metaforaning mohirona ifodasini ko'ramiz. Sinesteziyaning yuksak ifodasini Zulfiyaning she'rlarida ham uchratamiz.

*Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor<sup>25</sup>.*

<sup>23</sup> Oripov A. Aprel: Yangi she'rlar 2015 // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-yangi-she'rlar-aprel-2015.html>

<sup>24</sup> Vohidov E. She'rlar to'plami. - Toshkent, 1990. - 128 b.

<sup>25</sup> Zulfiya. Bahor keldi seni so'roqlab. - Toshkent, 2016. - 46 b.

O'zbek shoirlari ijodidagi sinestetik metaforalarning ko'pligini, birinchi navbatda, ular ramziylik belgilari bo'lishi bilan ham izohlash mumkin. Badiiy maqsadlarga erishish uchun sinesteziyadan faol foydalanish nafaqat o'zbek simbolistlariga, balki koreys ijodkorlari orasida ham urf bo'lgan.

Ko'plab mualliflarning fikriga ko'ra, koreys tilida hissiy holatlarni yetkazib berishda hissiyotlarga ko'proq e'tibor beriladi, ularni farqlash uchun koreys tilida metaforalar anchagina. Shu bois sinesteziyadan foydalanishdagi misollarni koreys mualliflarining ijodida ham ko'p uchratish mumkin.

Koreys adabiyotida sinesteziya qo'llanilishiga misol sifatida koreys klassik adabiyoti namoyandasi 윤동주 (Yun Dong Ju) ijodini keltirishimiz mumkin. Adibning

죽는 날까지 하늘을 우러러 (o'lgunimcha osmonga qarab)

한 점 부끄럼이 없기를, (bitta ham uyaladigan ish bo'lmasligini),

앞새에 이는 바람에도 (**bargning labiga qo'nayotgan shabadada ham**)

나는 괴로워했다. (men qiynaldim).

별을 노래하는 마음으로 (**yulduzni kuylaydigan qalbim ila**)

모든 죽어 가는 것을 사랑해야지 (barcha o'lib ketayotgan narsalarni sevish kerak)

그리고 나한테 주어진 길을 (hamda menga berilgan yo'lni)

걸어가야겠다 (bosib o'tishim kerak)

오늘 밤에도 별이 바람에 스치운다 (**bugun tunda ham yulduzlar shamollarga tegadi**)<sup>26</sup>

misralarida shoir tuyg'ulardan foydalangan holda inson obrazini yaratadi, uning mohiyatini tabiat hodisalari bilan qiyoslaydi.

Uchinchi bo'lim Personifikatsiyaning badiiy adabiyotda ifodalanishiga bag'ishlangan. Personifikatsiya metaforaning hosil qiluvchi ma'noning jonli referenti bilan hosila ma'noning jonsiz referenti o'rtasidagi qiyosga, o'xshashlikka asoslangan ko'rinishidir<sup>27</sup>. Metaforaning bu ko'rinishida ham so'zning leksik ma'no referenti hosila ma'no referenti bilan sirtqi belgi, harakat yoki holat xususiyati vazifasi kabilar doirasida o'xshash bo'laveradi. Ammo bu o'xshashlik hosila ma'no referentiga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi. Mana shu xususiyat personifikatsiya uchun asosdir. Masalan, *dam* so'zi "nafas" leksik ma'nosiga ega edi. Shu ma'nodan "taft" hosila ma'nosi yuzaga keldi. Ya'ni: *Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol kesar edi* (Oybek). Bu gapdagi *dam* so'zi "quyosh tafti harorati" hosila ma'nosi bilan voqelangan. Bu o'rinda oddiy qizdiruvchi haroratga jonli harakat baxsh etilib, purkalayotgan issiqqa o'xshatilgan. Bunga uni nafasga qiyoslash orqali erishilgan. Koreys tilidagi "웃음은 인간이 기쁘거나 즐거울 때, 혹은 특별한 감정이 들 때에 얼굴 근육을 움직여 일정한 표정을 짓는 반응을 일컫는 말이다 (Kulgu insonlar xursand bo'lganda yoki zavqlanganda, yoki o'ziga xos hissiyotlarga tushganda yuz mushaklarini harakatlantirib ma'lum bir yuz ifodasini quradigan reaksiyani qo'zg'aganda ishlatiladigan so'zdir)" jumlasidagi 표정을 짓는 반응을 일컫는 birikmasida ham

<sup>26</sup> 윤동주 하늘과 바람과 별, 유고시집 1941. - 24 편

<sup>27</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М., 1969. - С. 286.


shunday holni kuzatish mumkin<sup>28</sup>. Shunday qilib, personifikatsiyalarda hosila ma'no referenti jonsiz bo'lgani holda, hosil qiluvchi ma'noning jonli referentiga qiyoslanib, unga jonli ko'rinish baxsh etiladi.

Personifikatsiyaning mavjud talqinlarining batafsil tahlilini S.Yu.Voskresenskaya olib borgan. Muallif shunday xulosaga keladi: "Ko'pchilik manbalar personifikatsiyani metaforaning bir turi deb beradi, lekin personifikatsiyaning allegoriya sifatidagi talqinlari ham uchraydi. Bundan tashqari, ba'zi ta'riflarda personifikatsiya trop deb ataladi, boshqalarida esa figura sifatida keltiriladi. Bir necha manbalarda personifikatsiya umumiy nomlanadi: "badiiy qurilma", yoki "atama". Alohida mualliflar shunchaki "jonlantirish", "tasvirlash", "allegoriya" deb yozishadi. Shunday qilib, aytish mumkinki, personifikatsiya – bu faol o'rganiladigan, lekin hali oxirigacha to'liq o'rganilmagan hodisadir<sup>29</sup>.

Personifikatsiya hodisasi hayvonlarda inson qiyofasini ochadi va so'zlar, harakatlar, his-tuyg'ular, ifodalar, fikrlar orqali individual o'zini odam obrazida yashashiga imkon beradi. Insonning ichki dunyosiga bo'lgan qiziqish personifikatsiya hodisasida doimiy ravishda namoyon bo'ladi. Aqlli va individual hayvonlarning obrazlari odamlardan farq qilmaydi. Hayvonlarga insonlarni ko'chirish jamoatchilikka his-tuyg'ularning yashirin tomonlarini va odamlarning ikki yuzi borligini his qilish imkonini beradi, bu esa hayotning haqiqatini topish demakdir.

Personifikatsiyani murakkab ko'p bosqichli jarayon sifatida tushunishimizga asoslanib, shaxsning eng yuqori darajasida – "haqiqiy jonlantirish" da, model sifatidoshning - shaxsning bevosita idrok qilinadigan yoki to'g'ridan-to'g'ri idrok etilmagan jonsiz yoki mavhum ot atributining kombinatsiyasi tufayli amalga oshiriladi. Bunday birikmada nafaqat umumiy xususiyatlar mavjud emas, balki, aftidan, sifatlarning odatiy ot doirasiga tortilishi ularning assotsiativ imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Ammo ba'zida mualliflar yorqin tasvirlarni yaratishga muvaffaq bo'lishadi<sup>30</sup>.

Metaforaning uchta turini tadqiq qilgan holda ikkala tilda ifodalanishi va ishlatilishiga ko'ra naqadar o'xshashligi hamda farqli jihatlarni biz quyidagi diagrammada batafsil namoyon qilishga harakat qildik:



**1-rasm. Metafora turlarining koreys va o'zbek tillarida qo'llanilishi**

<sup>28</sup> 한국어 9, 모스크바 1086 학교 한국어 교재 편집부, 대한민국 서울특별시 교육청 2002. -p126.

<sup>29</sup> Воскресенская С.Ю. Метафора и персонификация: к проблеме взаимоотношений // Вестник ТвГУ. Серия "Филология" №4, 2016. - С. 11-15.

<sup>30</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. - С. 286.

Xulosa qilib aytganda, til hodisasi bo'lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi ko'rinishlarga bo'linadi. Metaforaning oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya degan ko'rinishlari hosil qiluvchi va hosila ma'no referantlarining o'zaro o'xshatilish holatiga qarab belgilanadi. Ushbu bobimizda metaforalarning 3 ta asosiy turi oddiy metafora, sinesteziya, personifikatsiyaning jumalarda va badiiy adabiyotda ishlatilishi tarjimada muqobilikdan (to'liq yoki qisman) foydalanish va tavsiflash, tarjima qilishdagi eng samarali usullar ekanligi isbotlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O'zbek va koreys tillarida metaforik ma'noning vujudga kelish vositalari”** deb nomlangan. Mazkur bobda his-tuyg'u, shakliga ko'ra metaforik ko'chishlar, eshitish, ko'rish, hid bilish va ta'miga ko'ra metaforalar hamda xulq atvoriga ko'ra metaforalar o'rganilgan.

Birinchi bo'limda His tuyg'u va eshitish bilan bog'liq (emperik) metaforalarning tasnifi haqida so'z boradi. Har qanday atrofimizni o'rab turgan olamdagi ekologik hodisalar avvalo hislar orqali idrok qilinadi (inson uni ko'radi, eshitadi, his qiladi), keyin uni mantiqiy tushunadi, shundan so'ng uning tasnifi amalga oshiriladi. Ushbu besh parametr holati tahlilidan inson va uning atrofidagilarning taqdiri hal bo'ladi. Hislarning semantik maydoni – bu o'zbek va koreys tillarida eng keng tarqalgan sohalardan biridir. Ehtimol bu insonning beshta sensorli tizimi orqali qabul qilingan subyektiv tajribasiga asoslangan ma'lumotlar bilan izohlanadi<sup>31</sup>.

His-tuyg'u ifodalarini ko'rib chiqishdan oldin his-tuyg'u iboralari haqida avvalo aytib o'tish joiz. His-tuyg'u – bu insonning tuyg'usi deb aytish mumkin. 기쁨- quvonch, 분노-g'azab, 슬픔-qayg'u, 즐거움-zavq, 사랑-sevgi, 싫어함-nafrat, 무서움-qo'rquv kabi tuyg'u ifodalari mavjud. Bular asosan kayfiyatga asoslangan his-tuyg'ular tasnifi bo'lib, bundanda murakkabroq hissiyotlar ham mavjud. Misol uchun, 긴장-hayajon, 부끄러움-uyat, 두려움-qo'rquv kabilar. Shu bilan bir qatorda ijobiy va salbiy his-tuyg'ularga asoslanib insonning hissiy holatini baholash va u haqida qaror chiqarish mumkin. Insonlar haqiqiy hayotda bir-biriga duch kelganda boshqa kishining yuz ifodasi yoki reaksiyalari orqali suhbatdoshining tuyg'ularini his qilish mumkin lekin yozuvli matnda faqat muallifning tavsifi orqali bilish mumkin.

His-tuyg'u idrokiga asoslangan metaforalar, tilshunoslikda va adabiyotshunoslikda ichki tuyg'ularni tashqariga chiqarib o'quvchiga yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi, chunki his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan ob'yektning xususiyatlarini boshqa ob'yektga o'tkazib ikkinchisini tavsiflash, shuningdek, unga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish imkonini beradi.

Ma'lumki, eshitish va ko'rish asosiy hislar qatoriga kiradi.

O'zbek tilshunosligidagi tovush semantikasiga asoslangan matnlar kam ifodali, lakonizm, so'zlarning tom ma'noda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Eshitish asosan radio, televideniya keng qo'llaniladi va ular turli xildir. Asosan reklamada foydalanilgan reklama roliklarida eshitishga doir metaforik iboralar ko'p uchraydi. Ular tuzilishi va leksik tarkibi jihatidan yetarlicha xilma-xildir.

<sup>31</sup> Клюев Е.В. Риторика. Инвенция. Диспозиция. Элокуция: Учеб. пособие для вузов. – М.: ПРИОР, 2001. - С. 272.

Ovozning intensivligi bilan ajralib turadigan *sokin* – *baland* oppozitsiyasi *issiq* – *sovuq* oppozitsiyasi bilan o'xshashligi bor. O'zbek tilida *baland* ovozda salbiy baho ma'nosi paydo bo'lsa, *sokinlik* – ijobiy ma'noga tortadi. Koreys tilida ham xuddi shunday holat mavjud: 큰 소리 (baland ovoz) asosan salbiy ma'noga ega va: baland ovoz (suhbat), shuningdek baqirish, kimnidir siltab tashlash, maqtanish ma'nolarini bildirishi mumkin, 조용한 소리 (sokin ovoz) esa qoidaga ko'ra, ijobiy ma'noni beradi.

Turli madaniyatlar maqsadli domenni kontseptsiyalashda turli manba domenlaridan foydalanadilar, bu odatda maqsadli domen hissiyot tushunchasi bo'lganda yuzaga keladi. Misol uchun o'zbek va koreyslardagi 행복 – baxt manba domenini ko'rib chiqamiz. Bunda ikkala tildagi baxt tushunchasi metaforik turli xil ifodalanib kelganini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida baxt tushunchasi ko'proq oilaga tegishli yoki ayol kishi uchun ishlatilganini kuzatishimiz mumkin. Koreys tilida esa baxt metaforasi asosan oshqozon, yorug'lik va suyuqlik manba domeni bo'lib keladi.

O'zbek tili	Koreys tili
Husning bo'lguncha baxting bo'lsin	행복은 위다
Qizga oltindan taxt emas, barmoqday baxt tila	행복은 빛이다
Eshikdan baxt kirsam falokat teshikdan qochar	행복의 그릇 속의 액체다
Xotin baxti erda bo'lar, yetim baxti yerda	심장 속의 꽃

Ikkinchi bo'limda Hid bilish va ta'miga ko'ra (emperik) metaforalar yoritilgan. Hidlarni idrok etish tarixiy, madaniy yoki ovqatlanish an'analari tufayli turli xalqlarda farq qilinishi mumkin.

Ikki tilda ham salbiy va ijobiy hidlar mavjud bo'lib, asosan maqbul bo'lgan hidlardan ko'proq foydalanishga harakat qilinadi. Yoqimsiz hidlarning manbasi tozalik me'yorlariga rioya qilmaslikdir. Hidlar tezda aniqlanadi va tezda yo'q qilinadi.

교실 안의 음식 냄새가 짝 없어지고 말았다 – Mehmonxona ichidagi ovqat hidi bir pasda yo'qoldi.

Bu yerda 짝 taqlid so'zi tez, bir lahzada yo'qolish ma'nosida qo'llanilgan.

교실 안에 연꽃의 깊은 향기가 머물고 있습니다 – Xona ichida lotos gulining chuqur ifori muallaq turib qolgan.

냄새 hid deb tarjima qilinsa-da, aslida yomon hidga nisbatan ishlatiladigan so'z hisoblanadi, yaxshi hidlar uchun esa ifor, ya'ni, 향기 so'zi aynan mos keladi. O'zbek tilida esa hid deganimizda ham yaxshi ham yomon hidning ma'nosini beruvchi umumiy so'z sifatida kiritilgan. O'zbek tilida hidni 2 turga ajratdik, bu esa badbo'y va ifor deb nomlanadigan turlarga bo'linib matnlarda va gaplarda qo'llanilib kelinadi.

Ma'lumki, ta'm standartlari tillar bo'yicha farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida achchiq ta'miga *qalampir*, *shuvoq*, koreys tilida – *ildiz* (*pirasma ailanthoides*); shirin – o'zbek t. *shakar*, koreys t. *shakar* va *asal*; nordon – o'zbek t. *limon*, *sirka*

va *klyukva*, koreys t. *sirka*; sho'r – ikkala madaniyat uchun ham - *tuz*. Koreys tili lug'atida esa: nordon *sirka ta'miga o'xshash* deb beriladi, shirin – *asal, shakar ta'miga o'xshash*, achchiq – *qobiq (pirasma ailanthoides) qa o'xshash ta'm*, sho'r – *tuz ta'miga o'xshash*.

Uchinchi bo'lim Ko'rish, xulq-atvor va shakliga ko'ra (ratsional) metaforalar tahlili deb nomlanadi. O'zbek tili ko'rish hissida ishlatiladigan asosiy fe'llar va birikmalar: o'zbek tilida *ko'rmoq, nazar tashlamoq, tomosha qilmoq, ko'z yummoq* va b. Ushbu vizual idrok etishda foydalaniladigan fe'llarga misollar ko'rib chiqamiz.

*Bu masalani kengroq ko'rib chiqish kerak.*

*Hayotga kulib qarang.*

*Dunyoga yangicha ko'z bilan qaraydigan kishilar doim yutadilar.*

*Shunday narsalar borki ularni har kuni ko'rish yoqimli.*

*Olamga chiroyli ko'zlar bilan qarang.*

Koreys tilida ham ko'rish hissiyotining fe'llari va fe'lli birikmalari qayd etiladi: koreyscha 보다 (*ko'rmoq*), 쳐다보다 (*sinchiklab razm solmoq, qaramoq*), 바라보다 (*tikilib qaramoq*), 눈을 뜨다 (*ko'zni ochmoq*), 눈을 감다 (*ko'zni yummoq*), 눈이 빛나다 (*ko'zi yashnamoq*) va b.

이제 세상을 내려다 봅니다 - Endi dunyoga yuqoridan qarayman.

춤추는 내 여자 친구를 친구들이 쳐다본다 – Raqsga tushayotgan mening qiz do'stinga o'rtoqlari tikilib qaradi.

Koreys tilida ranglar badiiy adabiyotda quyidagicha tavsiflanadi: 매혹적인 - *jozibali*, 태양의 - *quyoshli*, 빛나는 - *yarqirovchi*, 다이아몬드 - *olmosli*, 눈부신 - *ko'zni oluvchi*, 무지개 빛깔의 - *nurli*, 밝은 - *yorqin* va b. Rang namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi faqat o'zbek tiliga xos bo'lgan iboralar bilan ifodalanadi: *maksimum yorqin ranglar, yuz foiz toza rang, uzoq turuvchi rang, ranglar inqilobi, mahoratli ottenkalar*.

Metaforalarning inson xulq-atvoriga ko'ra shakllanishi koreys va o'zbek tillarida juda ko'p uchraydigan hodisalardan biri. Insonning fe'li, tabiati va xulq-atvori juda murakkab tuzilmaga ega bo'lganligi sababli uni tasvirlash va izohlab tushuntirib berish qiyin masalalardan biri. Tilshunoslikda va badiiy adabiyotda insonning xulq-atvorini ifodalab berish metaforalar yordamida juda chiroyli tarzda amalga oshiriladi. Shunga doir misollarni ikkala tilda ko'rib chiqamiz.

기자들이 김 모 씨에게 “최 모 씨의 어떤 점이 좋았습니까?”라고 묻자, 그는 “최 모 씨는 향기가 나는 여자”라고 대답했다 – Muxbirlar Kim mo janobdan “Chve moning qaysi tarafi yaxshi?” deb so'raganda, u “Chve mo iforli (ifor chiqadigan) qiz” deb javob berdi.

Yuqoridagi misolda “iforli ayol (ifor chiqadigan ayol)” metaforasida ayolning juda yaxshiligi, doim yaxshilik ulashib yuradigan mehribonligi nazarda tutilgan.

향기가 나는 여자, 느낌이 좋은 남자, 항상 공부하고 자신을 연마하는 지성적인 사람, 자유로운 영혼을 가진 감성이 풍부한 사람, 소박하고 겸손하고 마음이 따뜻한 사람, 이런 식으로 사람들은 누구나 되고 싶어 하는 자신의 모습을 갖고 있다 – Iforli ayol, hissiyotli erkak, doimo o'qib astoydil shug'ullanadigan samimiy odam, erkin ruhga ega hissiyotlarga boy odam, soddadil kamtar qalbi iliq odam, mana shu tarzda odamlar kim bo'lishni xohlasa o'sha xulq-atvorga ega bo'ladi.

그것은 현재의 자기에 만족하지 않고 보다 나은 미래, 멋진 삶을 꿈꾸기 때문에 갖게 되는 인간으로서의 자연스러운 마음이다 – Bu narsa hozirda o‘zidan qoniqmay nisbatan yaxshi kelajak, ajoyib hayotni orzu qilganligi sababli ega bo‘ladigan inson sifatidagi erkin qalbdir.

따라서 자기 자신을 위한 시간이란 자신의 신체와 정신을 발전시키기 위한 시간, 곧 자기 쇄신의 시간이다 – Shuning uchun o‘z-o‘zi uchun vaqt degani o‘zining tanasi va ruhini rivojlantirish uchun ketadigan vaqt, ya’ni o‘zini yangilash vaqtidir.

그리고 그 욕구를 위해 누구나 시간과 노력을 투자한다 – Hamda uning talabi uchun kim bo‘lsa ham vaqti va intilishlarini tikadi (investitsiya qiladi).

중요한 것은 지속적으로 신체 단련을 위해 시간을 투자하는 것이다 – Muhimi muntazam davomiy tanamizni tarbiyalashimiz uchun vaqtni sarflashdir (investitsiya qilishdir).

Demak, tadqiqotimiz mavzusi sifatida ikki tilda keng qo‘llaniladigan, insonning turli modallikdagi his-tuyg‘ularini bildiruvchi, odamlarda tegishli his-tuyg‘ularni keltirib chiqarishga qodir so‘zlar hamda rang, tovush, hid, ta‘m haroratni idrok etish asosidagi metaforalarni o‘z ichiga olgan o‘zbek va koreys tilidagi matnlar, jumlar bo‘ldi. Koreys va o‘zbek tillarida metaforalarning his-tuyg‘u, shakl, eshitish, ko‘rish, hid bilish, ta‘m hamda xulq-atvoriga ko‘ra turlaridan qayerda va qay holatda foydalanish kabi vazifalarni bajarishi dalillanib o‘tildi.

## XULOSA

1. Til jamiyat taraqqiyoti talabiga mos ravishda rivojlanuvchi ijtimoiy hodisa ekan, kishilik jamiyatda sodir bo‘ladigan har qanday yangilik, eng avvalo, uning leksik tizimida o‘z izini qoldiradi. O‘z navbatida, jamiyat tomonidan qo‘yiladigan bu talablarning amaliy ijrosi derivatsion hodisalar zimmasiga yuklatiladi. Biroq, jamiyat taraqqiyoti natijasida yuzaga keladigan talab va ehtiyojlarni har doim ham yasama so‘z maqomidagi birliklar hisobigagina qondirib bo‘lmaydi. Zero, bu vazifaning kattagina qismi so‘z yasalishi bilan parallel ravishda amal qiluvchi semantik derivatsiya hodisalarining zimmasiga ham yuklatiladi.

2. Metafora ob‘yektlarning bir sinfiga xos belgilarni boshqa ob‘yektlar sinfiga yoki ulardan biriga – metaforaning asosiy (dolzarb) sub‘yektiga mutanosiblikda tanlaydi. Metaforik ma‘no uch komponentni bilishdan kelib chiqadi: denotatlarning ikki kategoriyasi va metaforada tilga olingan denotat xarakteristikasi. Metaforada ishtirok etgan denotatlar kategoriyasining xarakteristikasi turli tillarda o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘ladi. Odatda, metafora til egalarining ushbu ob‘yektlar kategoriyasi haqidagi umumiy, xususan, mifologik, madaniy, emotsional baholi konnotatsiyarini o‘z ichiga olgan tasavvurlari zaxirasiga oid bo‘ladi.

3. Metaforani o‘rganish ko‘plab tasniflarga ega, chunki u ko‘p yillar davomida olib borilgan va kognitiv mexanizm sifatida turli sohalarni qamrab olgan. Ushbu tasniflar bu murakkab tushunchani ko‘p qirrali o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, metaforani tarjima qilish haqida gap ketganda, uning kontseptual tasnifi zamonaviy tarjimonlar tomonidan tan olinganligini yodda tutish kerak.

J.Lakoff va M.Jonson tomonidan taklif qilingan ushbu tasnif metaforalarning chuqurroq tabiatini ham, ularning shakllanish mexanizmini ham qamrab oladi. Yana koreys tilshunos olimlaridan Im Ji Ryong va Kim Ki Sularning ham metafora borasidagi qarashlarida kognitiv hamda kontseptual yondoshuvlar mavjud. Badiiy adabiyotdagi metaforaning chet tiliga tarjima qilinishi ana shunday kognitiv yondashuvni talab qiladi. Bu esa metaforaning kontseptual nazariyasiga asoslangan tarjimaning yangi tamoyillariga yo'l ochadi.

4. Insonning yashashiga va qanday harakat qilishiga qarab beshta sezgi bor. Har qanday atrofimizni o'rab turgan olamdagi ekologik hodisalar avvalo hislar orqali idrok qilinadi (inson uni ko'radi, eshitadi, his qiladi), keyin uni mantiqiy tushunadi, shundan so'ng uning tasnifi amalga oshiriladi. Ushbu besh parametr holati tahlilidan inson va uning atrofida gilarining taqdiri hal bo'ladi. Hislarning semantik maydoni – bu o'zbek va koreys tillarida eng keng tarqalgan sohalardan biridir. Ehtimol bu insonning beshta sensorli tizimi orqali qabul qilingan subyektiv tajribasiga asoslangan ma'lumotlar bilan izohlanadi.

5. Koreys va o'zbek tillarida hidni bildiruvchi ko'p sonli sifatlar ta'mdan farqli ravishda me'yorga ega emas (badbo'y, xushbo'y, iforli). His-tuyg'u idrokiga asoslangan metaforalar, tilshunoslikda va adabiyotshunoslikda ichki tuyg'ularni tashqariga chiqarib o'quvchiga yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi, chunki his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan ob'yektning xususiyatlarini boshqa ob'yektga o'tkazib ikkinchisini tavsiflash, shuningdek, unga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish imkonini beradi. O'zbek tilshunosligidagi tovush semantikasiga asoslangan matnlar kam ifodali, lakonizm, so'zlarning tom ma'noda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Koreys tilida esa eshitish asosan radio, televideniya keng qo'llaniladi va ular turli xildir. Asosan reklamada foydalanilgan reklama roliklarida eshitishga doir metaforik iboralar ko'p uchraydi. Ular tuzilishi va leksik tarkibi jihatidan yetarlicha xilma-xildir.

6. Metaforalarning inson xulq-atvoriga ko'ra shakllanishi koreys va o'zbek tillarida juda ko'p uchraydigan hodisalardan biri. Insonning fe'li, tabiati va xulq-atvori juda murakkab tuzilmaga ega bo'lganligi sababli uni tasvirlash va izohlab tushuntirib berish qiyin masalalardan biri. Tilshunoslikda va badiiy adabiyotda insonning xulq-atvorini ifodalab berish metaforalar yordamida juda chiroyli tarzda amalga oshiriladi. Inson qalbining shakllari haqida ham o'zgacha misollar keltirib o'tilgan. O'sha shakllarga ko'ra insonning fe'l-atvori farqlanadi, tasviriy ifodalarda aniq jumlar bilan maromiga yetkazib o'quvchiga tushunarli tarzda metaforik ko'chimlardan foydalanilib kelingan. Bundan ko'rinib turibdiki, tillarimiz naqadar boy, badiiy asarni yaratishda muallif va yozuvchi ham qiynalmay, barcha imkoniyatlarini ishga solib, tilimizdan baholi qudrat foydalanib chiroyli asar yaratgan, jumalarning mukammalligi metaforik ifodalar yordamida juda chiroyli tarzda keltirilib o'tilgan. O'quvchi o'qiganda bemalol tushuna oladi, ham bu iboralardan zavq olib hayratlanib boshqa tildan o'zimizning ona tilimizga tarjima qilishda ham qiynalmaydi. Chunki yuqorida tadqiq etib kelinayotgan masala va yechimlardan shuni anglab yetadiki, o'zbek va koreys tili bir-biriga naqadar o'xshash tillar. Demak uni o'rganishda ham qiynchiliklarga kamroq duch kelinadi.

7. O'zbek tilida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi va ko'chimning o'xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Sh. Rahmatullaev metafora ko'chimining boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga e'tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo. Samolyotning qanoti metaforik birikmasida qush qanotiga nafaqat vazifa, balki shaklan ham o'xshaydi. Koreys tilida ham shunday misollar uchraydi lekin juda kam, ya'ni, oddiy metafora koreys tilida o'zbek tilidagidek ishlatilish holatlari deyarli yo'q uning o'rniga sinesteziya metaforaning turi sifatida ko'p uchraydi.

8. Tilshunoslikda sinesteziyaga XIX asrning 80-yillaridan boshlab faol qiziqish bildirila boshlandi. Tilshunoslikda «sinesteziya» atamasi sezgilarga asoslangan assotsiatsiyalar jarayonini, ya'ni sezgi belgilarini bir sezgi a'zosidan ikkinchisiga o'tkazish asosida qurilgan leksik yoki frazeologik birliklarni anglatadi. Ko'pgina olimlar, xususan, rus olimi E.V. Klyuev, sinesteziyani metaforik troplarga bog'laydi. Biroq, sinesteziya o'xshashlik assotsiatsiyasiga (masalan, allegoriya, oksimoron, metafora va boshqalar) asoslangan boshqa troplar orasida ajralib turadi. Chunki u bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi sohalari - aytaylik, ko'rish va eshitish, ta'm, hid yoki teginish, shuningdek, turli xil kombinatsiyalarni o'z ichiga oladi.

9. Personifikatsiya metaforaning hosil qiluvchi ma'noning jonli referenti bilan hosila ma'noning jonsiz referenti o'rtasidagi qiyosga, o'xshashlikka asoslangan ko'rinishidir. Metaforaning bu ko'rinishida ham so'zning leksik ma'no referenti hosila ma'no referenti bilan sirtqi belgi, harakat yoki holat xususiyati vazifasi kabilar doirasida o'xshash bo'laveradi. Ammo bu o'xshashlik hosila ma'no referentiga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi. Mana shu xususiyat personifikatsiya uchun asosdir.

10. Tahlillar jarayonida shunday xulosaga kelishimiz mumkin: koreys va o'zbek badiiy matnlarida metaforaning o'xshash tomonlari, birlashtiruvchi umumiy xususiyatlar mavjud: metaforaning turlari oddiy metafora, sinesteziya va personifikatsiya hodisalari deyarli o'xshash ifodalanib keladi, bundan kelib chiqadiki ikki tilning o'zaro bir-biriga yaqin tomonlari bor va bu o'z-o'zidan koreys tilini o'rganuvchilar uchun yanada qulaylik tug'diradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**ЭШИМОВА ШАРОФАТ КЕНЖАБОВНА**

**ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ ЯВЛЕНИЯ МЕТАФОРЫ В  
КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Самарканд – 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан (рег.№ В2023.2.PhD/Fil3621).

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

**Научный руководитель:** Тухтасинов Илхомжон Мадаминович  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:** Хайруллаев Хуршиджон Зайниевич  
доктор филологических наук (DSc), профессор

Аббасова Диофуза Каримбек кизи  
доктор философии по филологическим наукам (PhD),  
доцент

**Ведущая организация:** Андижанский государственный институт  
иностранных языков

Защита диссертации состоится «22» мая 2026 года в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; E-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 63096). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «6» мая 2026 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 33 от «6» мая 2026 года)



**Н.З. Насруллаева**  
Председатель учёного совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошов**  
Учёный секретарь Научного совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
философии по филологическим наукам  
(PhD), доцент

**Д.А. Киселёв**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор филологических наук  
(DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** В мировой лингвистике метафорам стало уделяться особое внимание благодаря развитию идей и принципов антропоцентризма в явлениях языковой деятельности, и на этой основе культурное мышление вызывает особый интерес как средство выражения. Именно поэтому в последние годы такие глобальные и сложные проблемы, как язык и мышление, язык и личность, язык и общество, язык и культура, находятся в центре внимания современных исследований. Изучение метафор в связи с определенными социальными факторами общения служит обогащению информации о взаимовлиянии языка и общества. Антропоцентрические принципы и методы исследования, разработанные в таких современных направлениях, как психолингвистика, лингвокогнитология, лингвокультурология, прагмалингвистика, возникшие после системно-структурной лингвистики, показывают, что невозможно создать полноценное представление об этой деятельности путем анализа единиц языковой деятельности, связанных с языком или речью.

В мировой лингвистике, изучая лингвокогнитивные особенности языковой деятельности человека, лингвисты стали обращать внимание на динамические особенности метафор, актуализированных в речи. Научные исследования, проводимые в этом направлении, являются ярким тому подтверждением. Этот подход позволяет нам изучать язык с новой точки зрения - с точки зрения реализации языковых единиц в общении для успешного взаимодействия, продвижения интересов говорящего. Кроме того, тот факт, что выражения метафор в узбекском и корейском языках не были полностью научно обоснованы, создает необходимость комплексного исследования данной проблемы с использованием современных методов анализа.

В то время как новые подходы, появившиеся в лингвистике в нашей стране в последние годы, продвигают идею рассмотрения человеческого фактора в разрезах "язык и мышление," "язык-человек-общение," появляется возможность расширить масштабы исследований в узбекском языкознании. Независимость не только создает все необходимые условия для развития национальной лингвистики на основе передовых мировых критериев, но и возлагает на нас ответственность за реагирование на эти критерии, исходя из нашего многовекового национального мировоззрения. Эта ответственность, прежде всего, требует внимания к вопросу удовлетворения потребности в научной и учебной литературе, позволяющей глубже изучать корейский язык, который развивается в нашей стране как одна из ведущих отраслей. Анализ феномена метафоры в узбекском и корейском языках является одним из небольших шагов в удовлетворении такой потребности в узбекском корейском языкознании.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики

Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года", № УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы", Постановлении Президента Республики Узбекистан № 5117 от 19 мая 2021 года "О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан", Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 124-Ф от 16 февраля 2018 года "О проведении международной конференции на тему "Актуальные вопросы изучения и пропаганды узбекской классической и современной литературы на международном уровне", а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере<sup>32</sup>.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики "Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, культурно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства."

